

TOG‘AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA’SIRI

Sherkulov Sardor Komilovich

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti*

XX asrning 60-yillaridan keyin adabiyotga yangi bir epkin kirib keldi. Bu yangilikning ta’siri dastlab she’riyatda A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, R.Parfilar ijodida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, nasrda O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzaev, U.Nazarov, O‘.Umarbekov, O.Muxtor, O‘.Hoshimovlar ijodida yangi izlanishlarning maydonga kelishini ta’minladi. XX asrning 80-yillarida bir qator o‘zbek yozuvchilari Moskvadagi adabiyot instituti va Oliy adabiyot kursida ta’lim oldilar. Natijada nafaqat rus adabiyoti bilan, shu bilan birga Yevropa va Amerika adabiyoti namunalari bilan chuqur tanishish, ularni tarjima qilish, ijodiy o‘zlashtirish jarayoni tezlashdi.

U.Folkner nasri an’analaridan bevosita ta’sirlangan, bu ta’sirni, obrazlar, syujet motivlari, psixologik holatlar, hikoyalash shakliga ko‘ra yaqqol ifoda etgan yozuvchilar sifatida hech ikkilanmasdan T.Murod, M.M.Do‘st, N.Eshonqul, Sh.Hamro, T.Rustamov asarlarini ko‘rsatishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

T.Murod nasri bir tomondan Sharq nasrchiligi an’analaridan suv ichsa, boshqa tomondan g‘arb adabiyoti bilan hamohang. Ko‘p tomonlama U.Folkner asarlarining ham ta’siri bor. Vafo Fayzullo T.Murod nasri haqida yozar ekan, bu boradagi musiqiylik haqidagi qiziq fikrlarni ilgari suradi: “Bu fazilat adabiyotning dong‘il yo‘li nasrda noyoblashib, kam kuzatiladigan bo‘ldi. G‘arbda bunga chuchmal, ortiqcha narsa deb qaraydiganlar katta kuch. Va shuning uchun ham XIX – XX asr G‘arb, Amriqo nasrining so‘zi sovuq, ruhni ezadi. Ko‘ngil bilan hisoblashganda Joys, Kafka, Folkner, Kamyu kabi kabi jahonshumul yozuvchilarning nasri qancha zo‘r bo‘lgani bilan tinka-madoringizni quritib, nafasingizni qisadi. Bitikda kuy, ohang, she’riyat nash’asiga ochlik seziladi. Hartugul bu borada G‘arbgga nisbatan Sharqning imkoni ham, ehtiyoji ham tosh bosadi... Tog‘ay Murod nasri ham shunday shoirona. Uning qora so‘zi she’riyat ruhi bilan sug‘orilgan... Har bir imlosi, so‘z qurilishi she’riy, o‘ynoqi termalari, tashviq va taronalari borki, bir yo‘la ham nasrdan, ham nazmdan bahramand bo‘lamiz”¹. Maqola muallifining T.Murodga xos nasr uslubi haqida aytgan fikrlariga to‘la qo‘shilamiz. Haqiqatdan ham yozuvchining nasriy uslubi lirik uslubga yaqin. Hikoya, qissalarigina emas, hatto romanlarida ham yozuvchi shu uslubni muttasil saqlashga uringan. Uslubda she’riyatga xoslik uning “Askar mukofoti”, “O‘layotgan chog‘imda”, “Avessalom, Avessalom”, “Shovqin va g‘azab” romanlarida etakchi xususiyat hisoblanadi. Oxirgi romandagi Benji monologlarining barchasida she’r ritmi bor. U.Folkner shu tomonlama T.Murod

¹В.Файзуллох. Абдилят /Тоғай Мурод. Танланган асарлар. Роман, қиссалар китобида. – Тошкент: Шарк, 2018. – Б. 692.

nasri bilan hamohang. Hatto Moskvada o‘qib yurgan paytlari mutolaa qilganda T.Murod qalbidan o‘rin olgan deyishimiz haqiqatga zid kelmaydi.

T.Murodning “otamdan qolgan dalalar”dagi Dehqonqul obrazi asosiy hikoyachi vazifasini o‘tagan. U hamma voqealarni o‘zi so‘zlab beradi. So‘zlaganda ham boshqa adabiy obrazlarga o‘xshagan, ega-kesimi ravon, an’ana uslubda so‘zlamaydi. O‘z naqta nazarini, o‘ziga xos til bilan bayon etadi.

U.Folknerning “Askar mukofoti”, “Sartoris”, “Avgust yog‘dusi”, “Shovqin va g‘azab” kabi romanlarining barchasida fuqarolik urushi ruhi kezib yuradi. Bu urushda o‘zi ishtirok etish yoshiga etmagan qahramonlar urush va ta’qib xavfini otalarida, barcha kattalarda his etadilar. T.Murod asaridagi mazkur ko‘chirmada xuddi shu ruhiyat kuzatiladi. O‘z uyiga yashirincha kelayotgan ota, fuqarolik urushi xavfi, otaning ta’qib etilishi bola Dehqonqulning ruhiyatida aniq seziladi. “Shovqin va g‘azab” qahramoni Benji singari Dehqonqul ham bo‘layotgan voqealarga nisbatan kuzatuvchi pozitsiyasida turadi. Dehqonqul ham Benji ham bu xatarli, sirli voqealar ortida otaning omonat ekanini his etadilar. Qolaversa, Dehqonqul tildan voqelikning hikoya qilinish usuli ham U.Folkner boshqa qahramonlariga nisbatan Benjiga yaqinroq.

Yoki adibning “Momo er qo‘shig‘i” qissasida Pahlavon Daho obrazi bor. Uning bobosi fuqarolar urushi qatnashchisi. Nagan taqib, qishlog‘ida qizillar tartibini o‘rnatishga hissa qo‘shgan. Otasi Serjant Orziqulov degan hazil-kinoyali nom olgan, askarlikdan kelib qilgan eldan tashqari qiliqlari uchun shu nomga erishgan. Aslida Tursin, keyinchalik Pahlavon Daho nomini olgan qissa qahramoni serjant Orziqulov urushdan qaytgandan so‘ng tug‘ilgan yolg‘iz o‘g‘li. Oliygo‘hda o‘qib, otasining yoshligidagidek havolanib, shaharda buyuklik da’vosida yurib, oyog‘i erdan uzilgan Pahlavon Dahoning o‘zini tutishlari, hatti-harakatlari, ota-onasiga bepisandligi, sadizmga moyilligi “Shovqin va g‘azab” romani qahramoni Kventinga o‘xshab ketadi. Kventin telba ukasini xo‘rlash bilan bolalikning kichik jamiyatida o‘z mavqeini ko‘tarmoqchi bo‘ladi. Ukasini qiynab rohatlanadi. Pahlavon Daho esa butun jamiyatdan o‘zini baland tutadi. Ota-onasi, atrofida gilarni mensimaslik bilan o‘zini yuksak mavqedagi odam ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Asarda bir jaydari podachi, urush qatnashchisi, turmushning achchiq-chuchugini ko‘rgan odam Serjant Orziqulovning o‘g‘li daholik kasaliga yo‘liqib, o‘z iste’dodsizligi sabab fitnachi, ig‘vogar, tekinxo‘r odamga aylangani yoritilgan. Uning yuho nafs tufayli urush azoblari ham o‘zgartira olmagan Orziqulov arizabozga aylanadi. O‘z ishidan o‘zi uyalib oxirida shuning alamida olamdan o‘tadi. Bularning hammasi milliy an’analarga sodiq yashagan qishloq kishilarining keyingi avlodi axloqi, ma’naviyatida buzilish, inqiroz yuz berganini ko‘rsatadi. U.Folkner romanlaridagi “Janub inqirozi” falsafasida ham shunga yaqin holatlar badiiy tasvir etiladi. Bularning hammasi Moskvadagi Oliy adabiyot kursida ta’lim olish jarayonida jahon adabiyoti, shu jumladan, U.Folkner ijodi bilan mukammal tanishgan T.Murodning badiiy ta’sirlanish ko‘lamidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.Fayzulloh. Abadiyat /Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Roman, qissalar kitobida. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 692.
2. Tog‘ay Murod. Tanlangan asarlar. Roman, qissalar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 27.
3. Miliyev Suvonqul (Suvon Meli). Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filologiya fanlari doktori (DSc.) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 110.
4. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2015.